

BOLALARDA IQTISODIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH UCHUN INNOVATSION METODIKALARNI TA'LIMIY FAOLIYATLARDA QO'LLASH USULLARI

Shonazarova Mohidil Ro'zimurodovna

NavDPI Ta'lism tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lism) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdag'i bolalarda iqtisodiy kompetensiyan shakllantirish uchun innovatsion metodikalarni qo'llash orqali ta'lism sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari aks etgan. Innovatsion metodikalar pedagog-tarbiyachilarda kreativ g'oyalari bilan uyg'unlashgan holda ta'limi faoliyatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aks etgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, innovatsion metodikalar, ta'limi faoliyatlar, iqtisodiy bilim, metodik malaka, modellar, korporativ ta'lim.

Annotation:

This article reflects the measures to further improve the quality of education by using innovative methods for the formation of economic competence in preschool children. It has been shown that innovative methods serve to increase the effectiveness of educational activities in combination with the creative ideas of pedagogues-educators.

Keywords: Competence, innovative methods, educational activities, economic knowledge, methodological skills, models, corporate education.

Yangi O'zbekistonimizning rivojlanishi va yuksalishi uchun o'z hissasini qo'shib kelayotgan yetuk kadrlar sifatini oshirish bilan birgalikda ularni o'zlarini ta'lism va tarbiya berayotgan bolalarda ham mehnat tarbiyasini berish muhim ahamiyat kasb etadigan jarayondir. «Talim to'g'risidagi qonunda, O'zbekiston Respublikasida bu sohadagi boshqa qator qonunlarida mehnat ta'limga katta e'tibor berilgani beziz emas. Bugungi kunda O'zbekistonda o'tkazilayotgan bozor islohotlarining bosh maqsadi, xususiy mulkka erkinlik berishdir. Chunki odamlarni mulkdor qilmay, o'rta mulkdorlar sinfini yaratmay turib, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka erishib bo'lmashligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. «Yagona yo'limiz tadbirkorlar sonini ko'paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish! Har bir hokim byudjetga qo'shimcha daromadlarni taminlashi uchun o'zi izlanishi, tadbirkorga sharoit yaratib, biznes

vakillari bilan yelkama-yelka ishlashi kerak»¹. Bu so‘zlardan shuni anglash kerakki, vatanimizning taraqqiyoti uchun iqtisodiy va mehnat tarbiyasi muhimdir. Chunki shakllanib borayotgan yosh avlodimiz uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish va ularda tejamkorlik kabi tuyg‘ularni singdirish kerak. Maktabgacha ta’lim uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish uchun narmotiv-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.”²

Maktabgacha ta’lim tashkiloti vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- bolalarga, shu jumladan, o‘ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta’lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o‘z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;
- bolalarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;
- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minalash;
- bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang‘ich ta’limga tayyorligini ta’minalash;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.”³

Yillar davomida ta’lim berishning bir qancha usul va uslublari vujudga keldi. Ularning jamiyatimizdagи o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Ba’zi ta’lim berish uslublari maktabgacha yoshdagи bolalarning bilim olish jarayonini o‘rganish asosida tashkil etilgan bo‘lsa, boshqalari ta’limiy faoliyatlarni o‘tish jarayonida ro‘y beradigan muammolarni inobatga olgan holda tashkil etilgan. O‘qitish uslubiyatining boshqa turlari esa bir qancha olimlar tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy-mantiqiy modellar asosida, ya’ni Suqrot uslubida, muloqot usulida yoki korporativ usullarda tashkil qilingan. Undan so‘ng o‘qitishning ta’lim berish modellari asosida tashkil etish keng ko‘lamda amalga oshirila boshlandi. Bunda o‘quvchi-bolalarning ma’lum bir soha yoki fandan bilim olishlari maxsus usullar, ta’lim standartlari yoki strategiyalar asosida amalga oshirilgan. Ba’zi bir modellarda o‘qituvchi dominant rolida bo‘lib, barcha

¹ <https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyev-yagona-y-limiz-tadbirkorlar-sonini-k-payti-08-01-2020>.

² ” Ta’lim to’g’risida”gi O‘RQ-637 sonli 23.09.2020

³ ”Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi VM 391-sonli qarori 2019.05.14

ta’lim berish vazifalarini o‘zi hal qilar, boshqalarida esa bolalarga to‘la erkinlik berilib, ular demokratik tamoyillar asosida o‘qitilar edi ,yana boshqa birlarida esa bola va o‘qituvchi orasida tenglik hamda ijodiy fikr almashinish jarayoni amalga oshirilib, o‘zaro muloqot vositasida interfaol talim jarayoni amalga oshirilgan. Lekin bu modellarning ishlatalishi va samarasi o‘quvchi-bolalarning bilim darajasiga, intilishlariga, ongingin rivojlanish ko‘rsatkichlariga har doim ham mos kelavermagan. Masalan, guruhdagi bolalarning ba’zilari bilim olishni istamaydigan va bunga intilmaydi, ammo o‘qituvchidan ularga qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham bilim berish talab qilinsa, u holda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan har qanday model, usul yoki strategiya ham o‘z-o‘zidan ojizlik qilib qoladi. Bunday hollarda ta’lim berishning eng yangi usullaridan biri kooperativ talim berish modeli bolib, unda tarbiyalanuvchilar va talim beruvchi instruktorning birinchi maqsadi bolada qiziqishni uyg‘otish masalasi bo‘ladi. Bola qiziqishi oshgani sari uning fikri, dunyoqarashi va bilimlari kengayib boradi.

Bolalarga iqtisodiy kompetensiyani shakllantirish oiladan boshlanadi va maktabgacha talim tashkiloti va maktabda ham davom ettiriladi. Iqtisodiy kompetensiyaning mazmuniga sharq mutafakkirlari katta etibor qaratib kelganliklari, oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish, bolalarda o‘z ehtiyojlarini to‘larq qondirishga bo‘lgan izlanishlarda mehnatga yo‘nalganlikni tarbiyalash haqida bat afsil yoritib berilgan.Ma’lumki, «iqtisod» so‘zining ma’nosi keng bo‘lib, chuqur mazmunga ega. Ko‘p o‘rinda bu so‘z xalq ichida «tejamkorlik» so‘zining sinonimi sifatida qo‘llanildi. Tejamkorlik haqida so‘z ketganda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikni tushunamiz. Bolalarda iqtisod borasida ijodiy fikr yuritishni shakllantirishda ta’limiy faoliyatlar va ulardan tashqari mashg‘ulotlardan unumli foydalanish lozim. Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadiga bir qator vazifalarni hal etish natijasida erishish mumkin. Bu vazifalarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- bolalarda iqtisodiy ongni izchillik bilan rivojlantirib borish;
- oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish;
- bolalarda o‘z ehtiyojlarini to‘larq qondirishga bolgan izlanishlarda mehnatga yonalganlikni tarbiyalash;
- kasb tanlashga ongli munosabatda bolish, tejamkorlik, rejaliilik, omilkorlik, ishchanlik, xojalikni tejab-tergab olib borish kabi sifatlarni tarbiyalash;
- bolalarni iqtisodiy tahlil qilish malaka va konikmalari bilan qurollantirish, tejamkorlik va iqtisod qilish odatlarini tarbiyalash, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini shakllantirish, mehnatni ilmiy tashkil etish asoslarini egallab olish;
- masulyatsizlikka, mehnatdagи tartibsizlikka, bekorchilikka, boqimandalik kayfiyatlariga, xojasizlikka, isrofgarchilikka, beparvolikka murosasiz munosabatda bolish hissini tarbiyalash va hokazo.

Mana shunday tushunchalarni maktabgacha va boshlang'ich yoshdagi bolalariga ta'limi faoliyatlarda va ta'limi faoliyatlardan tashqari ishlarda bosqichma bosqich singdirib borishimiz zarur. "Bozor so'zi sotuvchi va xaridorlarning o'zaro uchrashadigan , tovarlar oldi sotdi qilinadigan joyni bildiradi. Ota-onalarning bolaning barcha ehtiyojlarini so'zsiz qondirishga intilishlari tarbiyadagi katta xatodir. Ota-onalar o'z farzandlarini mehnatsevar va tejamkor qilib tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilishlari kerak:

Bola oz ota-onasining qayerda ishlashini va nima ishlab chiqarishini, bu ishlab chiqarishning butun jamiyat uchun qanday ahamiyati borligini bilishi kerak. Umuman, bola ota-onasi ishlab, topib keltiradigan daromadning katta va foydali ijtimoiy mehnat evaziga olinadigan ish haqi ekanini mumkin qadar ertaroq yaxshi tushunishi lozim bo'ladi;

1. Oila byudjeti bilan mumkin qadar ertaroq tanishtirish lozim. Agar oilaning moddiy sharoiti juda yaxshi bolsa, bolaning oz tengdoshlari oldida bunday yaxshi sharoit bilan gururlanish va maqtanishga odatlantirmaslik kerak. 3. Ota-ona bola halol, rostgoy va sofdillikka odatlanib borishlarini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. Ular hech narsani boladan atayin yashirmasliklari va shu bilan birga uning koz ongida yotgan bolsa ham, soroqsiz olmaslikka orgatishlari kerak ;

2. Oilada tejamkorlik va ehtiyyotkorlik tarbiyasini togri tashkil etib, eskirib qolgan narsalarni yaxshilab, tamir qilib, yangisini sotib olish vaqtini chozish va shu yol bilan ota-onalar yoki oilaning boshqa azolari topgan pulning malum qismini tejab qolish mumkin boladi;

3. Bola faqat oz buyumlarini emas, boshqalarning buyumlarini ham ehtiyyot qilishga organishi lozim. Tejab-tergab ish korish odatlarini bolalarda mumkin qadar ertaroq tarbiyalamoq kerak. Pulni tejab-tergab sarflashga orgatish muhim;

4. Oilada ota-onalar oz farzandlarining mehnatsevar, tejamkor va ehtiyoj kishilar bolib yetishishlarida ozlari namuna bolishlari kerak. Oilada mehnat tarbiyasini amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim.

Iqtisodiy mazmundagi didaktik oyinlarni tashkil etish va o'tkazish uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqichda tarbiyachi asosiy voqealarni hikoya qiladi, har bir bola tomonidan iqtisodiy xarakterdagи rollarni, harakatlarni aniq bajarishiga e'tibor berishi kerak.

Ikkinchi bosqichda tarbiyachi bolalarga o'yin syujetida va rolda o'zlarini tutishlari va istaklarini namoyon qilish imkoniyatini beradi, shuning uchun o'yin syujetli-rolli o'yin darajasiga o'tadi, tarbiyachi o'z ishtirokini ikkinchi darajali rollarda davom ettirishi mumkin. Tahlil jarayonida bolalar qanday o'ynashgani haqida gapirib berish, bajarilgan rollarning iqtisodiy tarkibiy qismi nimada namoyon bo'lgani haqida fikr bildirish lozim.

Uchinchi bosqichda bolalarning tashabbusi bilan mustaqil rol oynash oyinlari paydo boladi. Bu holda tarbiyachining orni bolalarni syujetning bir nechta qismlariga mos ravishda oyinni moslashtirishga imkon beradigan pasbobuskunalar bilan taminlashda namoyon boladi.

“Jamiyatning bu guruhlari o‘zaro bir-birlariga bog‘liq va har doim aloqada bo‘ladilar va bir-birlarisiz yashay olmaydilar. Abu Ali Ibn Sinoning iqtisodiy qarashlariga doir merosi markazida inson va uning ehtiyojlarini qondirish masalasi turadi. Zero, yuqorida aytilganidek, inson bu dunyoning oliv nemati va uning ehtiyojlarini qondirish har qanday jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir. Albatta, inson ehtiyojlari turli-tuman va doimiy osib boruvchidir. Odamlar ehtiyojlarini iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, manaviy kabi guruhlarga ajratish mumkin. Ammo inson ehtiyojlari ichida ustuvor orinda iqtisodiy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish yotadi.”⁴

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik xarakterdagи innovatsion metodikalarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini yanada yaxshilash mumkun. Maktabgacha yoshdagи bolalar tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik texoshirishga xizmat qilishi mumkin. Texnologiyalardan foydalanish ta’limiy faoliyatning samaradorligini oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “ Ta’lim to‘g‘risida” 637-sonli 23.09.2020
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.”O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”O’RQ 16.12.2019.
- 3.Vazirlar Mahkamasi Qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 22.12.2020
- 4.Vazirlar Mahkamasining Qarori “ Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 14.05.2019
5. F.R Qodirova, Sh.Q Toshpo‘latova, N.M.Kayumova va MN.A’zamova .”Maktabgacha pedagogika “.Toshkent-2019
6. Artikova M.B. Umumta’lim maktabi va oila hamkorligi asosida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish: ped. fanl. dok. diss. –Namangan, 2021.

Veb-saytlar:

1. [1.https://fayllar.org/mundarija-kirish-v5.html?page=2](https://fayllar.org/mundarija-kirish-v5.html?page=2)
2. [2.https://goaravetisyan.ru/uz/netradicionnye-formy-provedeniya-zanyatii-v-detskom-sadu-netradicionnye](https://goaravetisyan.ru/uz/netradicionnye-formy-provedeniya-zanyatii-v-detskom-sadu-netradicionnye)
3. [3. https://lex.uz/docs/-4646908](https://lex.uz/docs/-4646908)
4. [4. https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyeev-yagona-y-limiz-tadbirkorlar-sonini-k-payti-08-01-2020.](https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyeev-yagona-y-limiz-tadbirkorlar-sonini-k-payti-08-01-2020)

⁴ Artikova M.B. Umumta’lim maktabi va oila hamkorligi asosida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish: ped. fanl. dok. diss. –Namangan, 2021. 33-bet.